

*Muhammad Yusuf*

## **BULBULGA BIR GAPIM BOR**

*She'rlar*

*Toshkent*

*G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,  
1987*

### **YURAGIM**

Tuproq yurtim mening,  
To'pori yurtim,  
Ko'zinga to'tiyo g'ubori, yurtim.  
Eng xushro'y gullar xushruksori yurtim,  
Eng xushbo'y bog'larning ifori yurtim,  
Eng baland tog'lardan yuqori yurtim,  
Murodi ko'nglimning xumori yurtim...  
Benavo bilmagan,  
Bedard sigmagan,  
Beyuzga benasib diydori, yurtim!

\* \* \*

Tanish terak. Ariq yoqasi.  
Bo'tana suv, shirin loyqa suv.  
Tol ko'chada otlar taqasi...  
Kancha bo'ldi ko'rmaganimga.

Yalpiz hidi tutgan dalalar,  
Gapga chechan bog'chaxolalar,  
Belanchakda yotgan bolalar...  
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga.

Tog' ortidan mo'ralagan kun,  
Shiyponlardan o'rlagan tutun,  
Tut shoxiga osilgan tugun...  
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga.

O'qariqdek yolg'izoyoq yo'l,  
Menga ilhaq, menga mushtoq yo'l,

O, qadrdon bir juft qadoqqo‘l,  
Qancha bo‘ldi ko‘rmaganimga.

Yog‘och eshik ochilar sekin...  
Toshmehrman men juda, lekin  
Hozir yig‘lavorishim mumkin —  
Qancha bo‘ldi ko‘rmaganimga...

## **MIRZAMUROD DEHQONNING NEVARALARIGA AYTGANLARI**

Uch norim bor mening, uchta shovvozim,  
To‘lqin o‘g‘lim, Zohid o‘g‘lim va Nozim.  
Men bir kun ularga aytdim dil rozim  
Bolalarim, halol yashanglar...

Kim bilmas bobongiz Mirzamurotni,  
Umri uvatlarga sochilgan zotni.  
Uyaltirib ko‘ymang siz ham bu otni —  
Bolalarim, halol yashanglar.

Orzular sizniki. O‘qish qochmaydi,  
O‘qib yulduzga she‘r to‘qish qochmaydi.  
Nopoklarga iqbol yuzin ochmaydi —  
Bolalarim, halol yashanglar.

Derlar: toy bosadi ot bosgan izni,  
Aylanib o‘tinglar yot bosgan izni.  
Mirzolarning ruhi qo‘llagay sizni —  
Bolalarim, halol yashanglar.

Yuzim yorug‘ bo‘lsa — yorug‘ jahonim,  
Shirin so‘zga mahtal shirin zabonnm.  
Oftobga termulay og‘rinmay jonim —  
Bolalarim, halol yashanglar...

\* \* \*

Marhamat tomonga yo‘lingiz tushsa,  
Kezib Ulug‘toqqa tutash qirlarni,  
Suhbatin oling bir shiyponda, tushda  
Oftobda qoraygan brigadirlarning.

Osmon cho‘g‘lar sochar uvatlararo,  
Saraton quyoshi yondirar yuzni.  
Ko‘nglingiz shivirlab aytadi sizga

Dehqonning yonida, kimligingizni.

Abduvali deysiz — jaranglamaydn,  
Abdihoshim oti anov insonning.  
Farhoddek devkomat emaslar, lekin  
Shular gullatmoqda Uzbekistonni.

Bizni maftun etgan kamalak rangi,  
Rayhonga qo‘shiqlar bitamiz tuman.  
Ular o‘pkasida o‘qariq changi,  
Brigadirlar tirik g‘o‘zasi bilan...

Marhamat tomonga yo‘lingiz tushsa,  
Paykallarga boring kechib loylarni.  
Sekin gapga soling xirmonda, tushda  
Serqadoq, tortinchoq Tursunoylarni.

Maysalar bo‘ynidan quchmoq murodi,  
Irmoqlar yeladi tik adirlardan.  
Ona-er hikmatin shotutdan so‘rang,  
Vatan mehrin so‘rang brigadirlardan,

## **FOZILJONNING ONASI**

Foziljon bilan birga pionerga o‘tgan edik. Keyin ko‘rishmagaimiz.  
Endi ko‘rishmaymiz ham... U Afg‘onistonda xizmat burchini o‘tayotib  
qahramonlarcha halok bo‘lgan.

Foziljonning onasi hammani «siz»lab qoldi,  
Tokchalarda sarg‘aygan xatlarin izlab qoldi:  
Bahorda eshik ochgal qo‘llarim muzlab qoldi,  
Nega bolam kelmaydn, nega bslam kelmaydi?..

Osmonlarning bag‘rnda necha oylar to‘lishdi,  
Qaldirg‘ochlar quyoshga parvonalar bo‘lishdi,  
Fozilim bilan ketgan laylaklar ham kelishdi,  
Nega bolam kelmaydi, nega bolam kelmaydi?..

Men ham undan ayrilib qolganimga ko‘nmaymai,  
Fozilni men qo‘shiqdek yuragimga ko‘mgayman.  
Bu qo‘shiqni endi men o‘lgunimcha kuylayman:  
Nega bolam kelmaydi, nega bolam kelmaydi.

Bu ko‘shikni men cho‘g‘dek sochaman poyingizga,  
Uchqunlari charsillab tegsin bir joyingizga,  
Naqaroti yor bo‘lsin eng erkatoyingizga,  
Nega bolam kelmaydi, nega bolam kelmaydi!.

## **BRIGADIR**

*Lenin ordenli brigadir A. Ahmedov hayotidan  
lavha*

Uni tanishadi qishloqda,  
Hatto tilga olmay turib otini.  
Lo‘ndagina qilib aytsam agar men:  
Kunda kir yuvadi xotini...  
Ko‘hlikkina xotini,  
Sho‘rlikkina xotini.  
Kunda kir yuvar-da, tushunaolmas  
Eri brigadirmi,  
Traktorchimi?..

Lekin gap bundamas,  
Gap shundaki,  
Kimki astoydil  
Yerga mehr qo‘ysa,  
Kaytadi bir kun.  
Qora terni sidirib turib,  
Cho‘pillatib o‘pib peshonasidan,  
Eli unga rahmat aytadi bir kun.

Mana qulluq qilar  
Bu kun el,  
Marhamatdan tortib Asaka.  
Oyoqqa qalqiydi kattayu kichik,  
Uni ko‘rib: — Brigadir aka!..

Eh-e, bu kunlarga yetkuncha  
Ozmuncha mashaqqat chekmadi.  
Yuragini anov injiq yerlarga,  
Tilagini anov injiq yerlarga,  
Necha qayta ekmadi.  
Gap bunda ham emas.  
Gap shundaki,  
Kimki astoydil  
Yerga mehr qo‘ysa,  
Qaytadi bir kun.  
Qora terni sidirib turib,  
Cho‘pillatib o‘pib peshonasidan,  
Eli unga rahmat aytadn bir kun.

Ammo,  
Qaerdasiz, o‘rtoq muxbirlar,

Nimalarni ko‘zlab yuribsiz?  
Yana qaerlarda,  
Yana qaysi bir  
Pufak qahramonni  
Izlab yuribsiz?!

Istardimki, bu kun  
Bor ishni tashlab,  
Bir kishini yo‘qlab kelsalaringiz  
Desalaringiz:  
Abdihoshim Ahmedov,  
Muncha ozg‘insiz.  
Muncha bo‘liq g‘o‘zalaringiz...

## **YIGIRMANCHI ASR**

Farhodlar videoga mo‘ltirab o‘sar,  
Shirinlar bir-birin sochini kesar,  
Shudgorni kim kechar,  
Daryoni kim to‘sar,  
Yigirmanchi asr, ahvoling yomon...

Fasllar aylanar,  
Bitta fasl yo‘q.  
Qahraton kechikkan kuzga urar do‘q.  
A‘zoi badaning snaryadu o‘q  
Yigirmanchi asr, ahvoling yomon...

Nima deysan yana gazetalarga,  
Qanotli, qanotsiz raketalariga,  
Ko‘zingga termulgan planetalariga?..  
Yigirmanchi asr, ahvoling yomon.

Yo‘ldoshni quchoqlab yig‘laydi osmon,  
Kemalar poyida titraydi ummon,  
Erta yer yuzida kim qolgay omon?..  
Yigirmanchi asr, ahvoling yomon.

Tinchlik — shudir mening eng ezgu so‘zim,  
Ovutib yasharman o‘zimni-o‘zim,  
Ko‘zinga javdirar bir yashar qizim...  
Yigirmanchi asr, ahvoling yomon.

## **OTA**

*Sirojiddin Saidovga*

Ota, g‘o‘zangizni suv bosib ketdi,  
Chumchuq vayron qildi jo‘xoringizni.  
Mening kitoblarim bir jambilbargcha  
Yozolmadi lekin xumoringizni...

Televizorlardan jilmaymoq nima,  
Men she‘rlar o‘qidim, ko‘ngliz to‘lmadi.  
Oqshom oq daladan bir bog‘lam somon  
Keltirgan bolacha nafim bo‘lmadi.

Qirq yillik oskolka qiynadi bir kun,  
Siz yotib qoldingiz, bo‘ldi keragim.  
Uchib borolmadim samolyot bo‘lib  
Ota, deb osmonga tegib kuragim.

Keyin siz ketdingiz. Bu yorug‘ dunyo —  
To‘polon daryoni menga qoldirib.  
So‘nggi o‘tinchingiz ayladim bajo  
Ko‘zlarimni to‘sgan sochimni oldirib!..

Mehrimni boshimga uraymi endi,  
She‘rimni boshimga uraymi.  
Mening sog‘iichimni yutib og‘rinmay,  
Yorilmay yashagan yurak-yurakmi?..

Ota, yuzlarimni suv bosib ketdi,  
Ko‘zyosh payhon kildi ko‘nglim gulzorin.  
Mening kitoblarim,  
Mening she‘rlarim —  
Qadringiz bilmagan yillarim zori...

## **MEHMON**

Suvlar endi tiniq tortgan payt.  
Kuz. Odamlar paxta teryapti.  
Nogoh xabar tarkaldi: diqqat,  
Marhamatga mehmon kelyapti!..

Keldi. Ko‘rdik. Ana salobat.  
(Bilishgan-da, «diqqat» deganlar).  
Dehkon yurtga yog‘ildi she‘r, bayt —  
Mehmonimiz shoir ekanlar.

Dalalarni aylandik bir kun,  
Bir kun chikdik ot minib kirga.  
Bizlar uning ko‘nglin ovladik,

U mavzular qidirdi she'rga.

Ketar chog'da ammo xafadek,  
Meni imlab barmog'i bilan,  
Shivirladi quloqqa sekin:  
Marhamatda haykal yo'q ekan...

Mehmon ketdi. Aytolmay qoldim,  
Men bir javob topolmay qoldim.  
Kuz. Odamlar paxta teryapti,  
Na uyimga qaytolmay qoldim.

Qaytsam: tiling yo'qmi, deb so'rar,  
Qaytsam: ko'zing yo'qmi, deb so'rar.  
Aytar so'zing yo'qmi, deb so'rar.  
Jazirama paxta paykali...  
Marhamatliklarning haykali.

## SAVOL

Hamma gaping to'g'ri, aflatun.  
Yerni chopish kerak, bo'yash kerak romni.  
Tokni ko'mish kerak kechikmay, lekin  
Nima qilsak ekan atomni?..

Kitob yozish kerak. To'y qilish kerak.  
Suvash kerak kelin tushadigan tomni.  
Muolaja istab sanchib qo'yar yurak,  
Nima qilsak ekan atomni.

Dehqon bolalari o'ynar xirmonda,  
Simga bog'lab olib bir teshik jomni.  
Uchuvchi kuladi ko'rib osmonda,  
Nima qilsak ekan atomni.

Kulol ming asrlik gumbazni tiklar,  
Jarroh tiriltirar o'lgan odamni.  
O'rtoq matematiklar,  
O'rtoq fiziklar,  
Nima qilsak ekan atomni?

Hatto eng sevimli ayol quchog'ida,  
Unutolmayman men gunoh-xatomni.  
Bir savol—xol bo'lib yonar uning dudog'ida:  
Nima qilsak ekan atomni?..

Beshiklarni quchib aylanadi Yer,

Oqar yuzlaridan marjon-marjon ter.  
Nima qilsak ekan atomni,  
Nima kilsak ekan atomni?..

### **BIR KECHA**

Bir kecha bexosdan uyg'onib ketsam,  
Yig'lab o'tiribdi yuragim yum-yum.  
Cho'chib turdim: senga nima bo'ldi, erkam  
Nimaga yiglaysan,  
Men nima qildim?..

Unday desam bo'lmas,  
Bunday desam ko'nmas,  
Chekdim. Chiqib sokin hovlini kezdim.  
Hamma yulduz so'ndi. Bir yulduz so'nmas  
Ko'zinga mo'ltirab turar ilk sevgim.

Yulduzdan ham olis o, sen buyuk g'am,  
Bugun o'zing yo'qsan faqat yonimda.  
Hijron kuyin chalib qon o'rnida ham  
Armon aylanadi joni tanimda.

O'ylayman, o'ylayman, o'ylarim uzun,  
qo'lim qisqa sevgim, bo'ylarim uzun.  
Endi sen men uchun eng uzun ertak,  
Endi meni yomon qiynar bu yurak!..

Chekaman. Tutunga to'ladi xona  
Ilk sevgim mo'ralar to'rt burchagindan.  
Men dalli, yuragim mendan devona  
Yotmayman deb yig'lar parto'shagingda.

### **NOZIM HIKMAT**

Diyorimga ta'zim qilib tug'ildim,  
Poyida bir gulday, bir hulvodayman  
Ammo egik boshdan unga nima naf,  
Dilga nima huzur bilmayman,  
Yurak zorlanadi, zorlanaverar.

Bilmayman, men qanday uzarman qarzim,  
Uylab dil uvushar, qor bosgan qirday.  
Ulug'tog' poyida to'qson yil yashab,  
Cho'qqi ko'rmay o'layotgan kampirday  
Yurak zorlanadi, zorlanaverar.



O, mening yolg'izim, mehribonlarim,  
Yurt kulsa kulganim-suyunganlarim.  
Yig'lasa-yig'lagan, kuyunganlarim,  
Sizlarni o'ylasam, o'ylagan sarim  
Yurak zorlanadi, zorlanaverar.

Diyorimga ta'zim qilib tug'ildim,  
Poyida bir gulday, bir hulvodayman.  
Lekin egik boshdan yurtga nima naf  
Dilga nima huzur, bilmayman.  
Yurak zorlanadi, zorlanaverar.

Dengizlar ortida bir yurt bor obod,  
U yerda odamdek yashar odamzod.  
Insonga mehr eng oliy mukofot,  
Yurtim, kulganingni ko'rmasman nahot?..  
Yurak zorlanadi, zorlanaverar.

Bilganim azizdir barcha irqlar ham,  
Hammasi suyimli, hammasi qardosh.  
Lekin ona turkning moviy ko'zlari...  
Qora dengiz o'sha ko'zdan yoqqan yosh,  
Yurak esa yonar—zorlanaverar.

Bilgum, tugar sabri sabrimning bir kun,  
Qamishlar bosadi qabrimni bir kun.  
Ulsam qadri oshgay qadrimni bir kun,  
Biroq sen-chi, yurtim, Sen qachon kularsan,  
Sen qachon ozod va obod bo'larsan?  
Yurak zorlanadi, zorlanaverar...

## **ANJELIKA**

*Evakuatsiya qilingan bir oila bnznikida yashagan. Ona-  
bola. Belorussiyadan. Onasining oti hozir yodimda yo'q.  
Qizning ismi Anjelika edi...  
Poezddagi suhbatdan.*

Qirg'in janglar borar edi Mag'ribda,  
Qachon tugashini bilmaymiz.  
Sinfimizga bir qiz kelib qo'shildi —  
Sochi sunbul, ko'zlari yalpiz.

Anjelika!  
Otasini otishgan.  
Anjelika!

Uyiga bomba tushgan.  
Shunday ozg'in,  
Shunday ozg'inki,  
Bargizubga o'xshatish mumkin...

Menga qizlar yalinadi har okshom,  
Yur, fashistni ko'rganmikin, suraylik,  
Ketdik deyman. Ammo bilib qo'yinglar,  
Anjelika hammangizdan chiroylik!

Qalampirni ham meva deb o'ylaydi,  
Uzib ber, deb kunda meni qo'ymaydi.  
Kunbotarga karab yum-yum yig'laydi...  
Anjelika hammangizdan chiroylik!

Kunbotarda o'klar chaqnar yulduzdek,  
Jasadlar dor uzra bo'g'otda muzdek.  
U yoqda ukasi qolgan to'rt oylik,  
Anjelina hammangizdan chiroylik.

Turshaklarga to'lib ketar qo'yinlar,  
Qizlar to'xtab qolar: o'ylab ko'raylnk...  
O'ylayvering, ammo bilib qo'yinglar —  
Anjelika hammangizdan chiroylik!..

Tunlar ko'chib, zafar tong otar bo'ldi,  
Chehrasiga termulamiz — to'ymaymiz.  
Sinfirmizdan bir suluv ketar bo'ldi,  
Sochi sunbul, ko'zlari yalpiz.

Kunbotarga yelib borar parovoz,  
Bir qiz yig'lar: xat yozishib turaylik,  
Bir qishloq qiz yig'lar undan uzmay ko'z:  
Anjelika... hammamizdan chiroylik.

## **XIRMONDAGI BOLA**

Bunday qaramagin, chaqaloq.  
Men halol odamman har holda.  
Chayqalardi har yil kuzda mening ham  
Belanchagim shu bukri tolda.

Yorilgan qo'llarga termulib yurib,  
Shu yalpiz dalada men ham bo'y yetdim.  
Keyin she'r yig'ladi tushimga kirib,  
Keyin o'zim yig'lab Toshkentga ketdim.

Na Oybek yo‘q edi,  
Na G‘afur G‘ulom.  
Mirtemir yo‘q edi,  
Usmon Nosir ham...

Navoiy satriga termulib yurib,  
To‘ydim jamolini bu ko‘hna elim,  
Keyin sen izlading tushimga kirib,  
Keyin o‘zim izlab yoningga keldim...

Bunday qaramagin. Bunday qaramagin,  
Sen xuddi o‘zimsan, xirmondagi bola..  
Mening, mayli shodon, mening, mayli g‘amgin  
Eng go‘zal so‘zimsan, xirmondagi bola!

Men keldim, shul shaffof so‘zimni tonib,  
Men bildim, yurakdan Vatanni sevmog —  
Belanchak osilgap tollarni o‘pib,  
Chaqaloq ko‘ziga halol termulmog...

## **MO‘MINJON**

Mo‘min suvchi  
G‘o‘zaga suv tarab yurar,  
Ish payti yurakdan ishlab,  
Yayrab yurar.  
Bo‘sh payti g‘isht quyishga ham,  
Yarab turar.  
Qish paytida shiyponga ham,  
Qarab turar...

Mo‘min dehqon —  
Daladadir kuni bilan,  
G‘o‘zasiga  
Parvonadnr kuni bnlan.  
Oftob tanish,  
Tanadadir kuni bilan...  
Sheriklari  
Panadadir kuni bilan.  
Sheriklari —  
Pixii yorgan mast tuyalar.  
Sheriklari —  
Xachirdan ham past tuyalar.  
Mo‘minjondan kulishadi;  
Sodda odam!..  
Mo‘minjonni qilishadi askiyalar.  
Mo‘min suvchi

Bir kun og‘rib qoldi, tovba,  
Qornin ushlab,  
Uyiga yo‘l oldi zo‘rg‘a.  
Tut suyadi,  
Tol suyadi,  
Yer suyadi,  
Xotining oldiga yetvoldi, zo‘rg‘a...

Mo‘min dehqon.  
Mo‘min endi... nogiron chol.  
Ko‘ziga tik qarolmaydi Yo‘lamatol!<sup>1</sup>  
Ne bo‘ldi, deb so‘rolmaydi Yo‘lamatol,  
Mo‘min butun Marhamatga tirik savol!  
Mo‘min endi g‘o‘zaga suv taramaydi,  
Ish payti yurakdan ishlab yayramaydi.  
Bo‘sh payti g‘isht quyishga ham yaramaydi,  
Qish paytida shiyponga ham qaramaydi...

## SINGLIMGA MAKTUBLAR

Qachon xat yozgandim senga, bilmayman,  
Qofiya bilan band bugun tosh ko‘nglim.  
Yolg‘iz akang bo‘lib,  
Yoningda yurmayman...  
Kechir meni, singlim,  
Kechir meni, singlim!

U yoqda shotutlar  
To‘kilar suvga.  
Qovunlar yorilar,  
Sen yo‘l karaysai.  
Tuproq ko‘chalarda,  
Mushtoq kechalarda,  
Yoz — meni sog‘inib sarg‘aygan maysa.

Umrinni yulqilab,  
Yillarim o‘tar.  
Yurak yig‘laydi-yu,  
Aytmas dardini.  
Men she‘rim qo‘ltiqlab  
Kun bo‘yi izlayman,  
Adabiy xodimning bitta mardini.  
Biriga kandaydir turoqlar dastak,  
Birin o‘ylantirar hali yoshligim:  
Nega bu she‘ringiz otlar haqida,

---

<sup>1</sup> Yo‘lamatol – Marhamatdagi qishloq nomi.

Ularni yoqtirmas mening boshlig'im...

Goh to'lib ketaman,  
Qanday gap axir,  
Qo'ygil meni deyman ey, shirin azob  
Quyoshga termulay,  
Yerga bosay bag'ir,  
Qo'shiqlar kuylashga boshqa odam top!..

Yana kaysar ruhim,  
Jonimni cho'qir,  
Yoz deydi.  
Singiljon, qo'rqay nimadan?..  
Eng go'zal she'r  
Sening yorilgan qo'ling,  
Hamma boshliqlarning  
Boshlig'i — Vatan!..

Qaydai keldi menga bu dard,  
Bilmayman.  
Yurak yig'laydi-yu,  
Aytmas dardini.  
She'rimni qo'ltiqlab,  
Kun bo'yi izlayman,  
Adabiy xodimning bitta mardini.

Biriga qandaydir turoqlar dastak,  
Birin o'ylantirar indamasligim:  
Nega bu she'ringiz hijron haqida,  
qayg'uni yoqtirmas, deydi boshlig'im.

Keyin yana shotut to'kilar suzga,  
Behilar hidiga to'ladi xonam.  
Ayvonda,  
xirmonda,  
Anjon tomonda,  
Kuz — meni sog'inib sil bo'lgan onam  
yig'laydi,  
bu yil ham  
kelmadi, bolam...  
Qachon xat yozgandim, senga  
Bilmadim.  
Qofiya bilan band mening tosh ko'nglim.  
Yolg'iz akang bo'lib,  
Yoningda yurmadim...  
Kechir, meni singlim,  
Kechir, meni singlim!

\* \* \*

Bir yil bo‘ldi,  
Sendan kelgan xat —  
Qalin kitob ichida diqqat.  
Men esa band,  
Men ovoraman,  
Marhamatga qachon boraman?..

Bugun do‘stim tug‘ilgan kuni,  
Tabriklayman gul bilan uni.  
Tort kesaman,  
Tarvuz yoraman...  
Marhamatga qachon boraman?

Diyorimning bayramlari sho‘x,  
Bayramlarda esa bilet yo‘q.  
Bir kassirga ming yolvoraman,  
Marhamatga qachon boraman?..

Chimildiqqa kirmoqda bir qiz,  
Esiz, uvol ketdi sevgimiz.  
Noilojman,  
Yo‘q, bechoraman,  
Marhamatga qachon boraman...

Menga ming juft nigoh qadalar,  
Boshlanadi mushohadalar.  
O‘zi yomon,  
Yuzi qoraman,  
Marhamatga qachon boraman...

Men esa band,  
Men ovoraman.  
Tort kesaman,  
Tarvuz yoraman.  
Bir kassirga ming yolvoraman,  
Marhamatga qachon boraman!..

**EY, DIL...**

Bo‘yi rayhon yurtimning  
Qadrin bilib yurdimmi.  
Kulganda shod,  
Kuyinganda  
Bag‘rim kuyib yurdimmi?

Dardin olay dedim,  
Lekin  
Dardin bilib yurdimmi?..  
Ey dil, sen ayt!

Bilib, qachon  
Darmon bo'ldim,  
Bilmay qachon berdim pand,  
Xush chog'ini  
Ko'zga surtib.  
Quchogini aylab band.  
Yurtim menga  
Ona bo'ldi,  
Nima qildim men —  
Farzand?  
Ey dil, sen ayt!

Oy nurida xanjardek  
Yaltiraydi maysalar,  
Bobo Shiroq  
Yelkasida  
Qaltiraydi, nayzalar.  
Sendan qanday  
Sado bo'lar,  
Jonimga tig' saysalar?..  
Ey dil, sen ayt...

Bizga Vatan  
Shamsimohdir,  
Bizga panoh shu Vatan.  
Doim hamroh  
Shu Vatandir,  
Doim ogoh shu Vatan.  
Endi kimdir,  
Sovut kiygan,  
To'marisni bilmagan?..

Ey dil, sen ayt!  
Giyoh unmay,  
Yer yig'laydi,  
Chingiz o'tgan joylarda.  
Ko'ksimda bir  
She'r yig'laydi,  
Chingiz o'tgan joylarda.  
Tulpor izi,  
Toshga sizib,  
So'roqlaydi soylarda:  
qayda qoldi

Jaloliddin  
Manguberdi, qaylarda?..

Vohkim, shamshir  
Qindan chiqsa  
Tolib — ahli ilm lol.  
Baxil bir haq,  
Johil ming haq  
G‘olib, ahli ilm lol.  
Fozillaring  
Ahvolidan  
So‘ylay desam, tilim lol...

Yog‘iy zabon  
Yurt boshiga  
Yogdirgan do‘q-yulduzlar.  
Har chaqnagan  
Quyoshiga  
Yog‘dirgan o‘q-yulduzlar.  
Hulkar emas,  
Zuhal emas,  
Tili bo‘lsa aytsin ko‘k —  
Sho‘rlik elning  
Ko‘zlaridan  
Sachragan cho‘g‘ — yulduzlar...

Bizga Vatan  
Shamsimohdir,  
Bizga panoh shu Vatan.  
Doim hamroh  
Shu Vatandir,  
Doim ogoh shu Vatan.  
Endi kimdir,  
O‘tda kuygan,  
Muqannani bilmagan?..  
Ey dil, sen ayt!

Qarang, qadim  
Samarqandning  
Yo‘llari qon, sirg‘alar.  
Moziydan bir  
Padarkushning  
Qo‘llari qon, sirg‘alar.  
Tig‘ yaltirar,  
Ulug‘bekning  
Bo‘g‘ziga jon sirg‘alar...

Ajdodini



Bilmaganda  
Dil bo'larmi, ayt o'zing.  
Qavm yodini  
Bilmaganda  
Dil bo'larmi, ayt, o'zing  
Faryodini  
Bilmaganda  
Dil bo'larmi, ayt o'zing.  
Ey dil, sen ayt!

Bobolaring  
Dastingdan dod  
Urib kelsa, netarsan.  
Unutding deb  
Ustingga ot  
Surib kelsa, netarsan.  
Mirzo Bobur  
Mozoridan  
Turib kelsa netarsan?!  
Ey dil, sen ayt!

Bizga Vatan  
Shamsimohdir,  
Bizga panoh shu Vatan.  
Doim ogoh  
Shu Vatandir,  
Doim hamroh shu Vatan.  
Endi kimdir  
Og'ir kunda  
Qo'ltigiga kirmagan?..  
Ey dil, sen ayt!

Boq, Mashrabling  
Kelar qaytib  
Yalangoyok. Qashqardan.  
Oh, Mashrabling  
Kelar qaytib,  
Yalangoyoq Qashqardan.  
Shoh Mashrabling,  
Kelar kaytib  
Yalangoyoq Qashqardan...

Ana, Tohir  
Suvga cho'kdi,  
Zuhro yutdi zahri qon.  
- Sayhundaryo,  
Jayhundaryo  
Ovdi bo'lib nahri qon.

Zaynablaring  
Zardobidan  
Kumushlaring, bag'ri qon,  
Oftoboyim  
Ruhi bo'lib  
Chirqiraydi Marg'ilon!

Shohimardon  
Tog'larida  
Bir tosh yotar beomon.  
Bir mard o'glon,  
Jo'mard o'g'lon,  
Yurtdosh yotar pahlavon.  
Sho'roni she'r  
Qilib endi  
Kuylay olmas Hamzaxon...  
Ey dil, sen ayt!

Yurakda bir  
Armonim bor,  
Tugamaydi so'ylasam.  
Yurakda hur  
Dostonim bor,  
Oftob tinglar kuylasam.  
Yurtim, senga  
Fidolarning  
Yodiga mangu mash'al —  
Tuproqqo'rg'on  
Uzra alvon  
Bayroq yonar bo'ylasam.

Inqilob bu —  
Isloh demak,  
Inqilob bu —  
Yer, suv, non.  
Inqilob bu —  
Janggoh demak,

Inqilob bu —  
Imtihon.  
Inqilob bu —  
Qutug' kurash,  
Inqilob bu —  
Qutlug' qon!..

Seni ko'rib  
Qarog'imda  
Simlar o'sdi, Maynajon.

Oydin kunda  
Yo'llaringni  
Kimlar to'sdi, Maynajon.  
Biyron-biyron  
Tillaringni  
Kimlar kesdi, Maynajon?

Bo'lar elning  
Bolalari  
Bir-birini der ekan.  
Bo'lar elning  
Zog'i lochin,  
Quyoni ham sher ekan.  
Bo'lmas elning  
Bolalari  
Bir-birini yer ekan...  
Ey dil, sen ayt!

Osmonga ayt,  
Zoring tinglab,  
Yulduz yig'lab kul bo'lsin.  
Insonga ayt,  
Qo'l bergani  
Yurak bo'lsin, dil bo'lsin.  
Surxonga ayt,  
Abdullaning  
Yotgan yeri gul bo'lsin!..  
Ey dil, sen ayt!

...Mag'ribdan yov  
Bostirib,  
Kelaverdi bir zamon.  
Mashriqdan sen  
Boraverding:  
Yurtimga jonim qalqon!  
Mardim —  
Yigirma million.  
Dardim —  
Yigirma million...

Eryigitov  
Ilma-teshik:  
Ortinga yov o'tmasin!  
Tanki bilan  
Dneprga  
Cho'kib ketdi To'xtasin<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> *Tuxtasin Mirzaev* — Sovet Ittifoqi Qahramoni.

Ey dil, sen ayt.  
Ey dil, sen ayt.  
Sen aytmasang aytgay kim —  
Sohilga bor  
Daryoga ayt,  
Bir zum suvi to‘xtasin...

Tirik jonning  
Dushmani bor,  
Tirik jonning do‘sti bor.  
Toshkentda bir  
Temirchiga  
Haykal qo‘ydik ustivor:  
Jigarlarim,  
Mana suv, non  
Bo‘lishamiz barobar,  
Nima topsak,  
Birga baham  
Ko‘rishamiz barobar!..

Besh yil qirg‘in  
Kezib, golib  
Qaytganlarga gapim bor.  
Dzotlarga  
Ko‘krak bosib  
Yetganlarga gapim bor.  
Yurtimning oq  
Sutin ichib  
Sotganlarga gapim bor...  
Ey dil, sen ayt!

Bu kun shahid  
Qahramonlar  
Yodi o‘rtar ko‘nglimni,  
Farg‘onalik  
Onaizor  
Dodi o‘rtar ko‘nglimni:  
Odamlaroy,  
Asrolmadim,  
Mamadali o‘g‘limni...  
Ey dil, sen ayt!

Bizga Vatan  
Shamsimohdir,  
Bizga panohdir Vatan.  
Doim hamroh  
Shu Vatandir,  
Doim ogoh shu Vatan.

Endi kimdir  
Og‘ir kunda  
Qo‘ltig‘imga kirmagan?  
Ey dil, sen ayt!

Cho‘g‘dek yonib  
Ufqlarga  
Quyosh botar, qaranglar.  
Oskolkalar  
Azobidan  
Hali bitmay yaranglar,  
Yanaq irg‘in  
Janglarga shay,  
Raketalar jaranglar,  
Umri e‘zoz,  
Shunday ham oz,  
Tushunmaydi garanglar...

Asrim temir,  
Asrim cho‘yan,  
Botmaydi dil bo‘zlari.  
Asrim dono,  
Asrim nodon —  
Yigirmada o‘zlari.  
O‘yga botib,  
«Uh»lar otib,  
Labda qotib so‘zlari,  
Ona zamin  
Aylanadi —  
Bir tugmada ko‘zlari.

Moviy osmon  
Ostida hech  
To‘xtamasin, deyman u.  
O‘zdan bo‘lak  
Hech narsaga  
O‘xshamasin, deyman u.  
Vahshat tugma,  
Dahshat tugma.  
Qaqshamasin, deyman u...

Dahshattugma,  
Goh ishonmay  
Qiynalaman o‘zimga,  
Qaldirg‘och ham  
Samolyotga  
O‘xshab ketar ko‘zimga.  
Kimlar yig‘lar,

Kimlar kular,  
Bu kun to'g'ri so'zimga...

Seni o'rab,  
Bu kun qara,  
Yovlar qayrab yurar tish.  
Urush so'rab,  
Devonavash  
O'qtalishar oyga musht.  
Buzilgin sen,  
Uzilgin sen,  
Uzilgin-u, soyga tush.  
Hech kim bilmas,  
Hech kim ko'rmas,  
Hech kim so'rmas joyga tush

Bo'yi rayhon yurtimning  
Qadrin bilib yurdimmi.  
Kulsa kulib,  
Kuyinganda  
Bag'rim kuyib yurdimmi.  
Dardin olay dedim,  
Lekin  
Dardin bilib yurdimmi?..  
Ey dil, sen ayt!  
Bilib, qachon  
Darmon bo'ldim,  
Bilmay qachon qildim qon.  
Yurakdan bir  
Qo'shiq kelar,  
Yurakda bir so'z nihon:  
O'zbekiston —  
Ota makon,  
O'zbekiston —  
Onajon!..  
Ey dil, sen ayt!

Ardog'ida  
O'sdim, uni  
Suyib yashay nonday man.  
Ko'ksimdagi  
Imonimday,  
Ko'ksimdagi jonday man.  
O'z onamga  
Sevaman deb  
Aytay lekin qanday man -  
Ey dil, sen ayt!..

## INSON

Yulduzlarni yutib yubordi bu tun,  
Yutdi-yu, unutib yubordi bu tun.  
Shunday tunda agar yig'laging kelsa,  
Sen odam ekansan, odam ekansan.

Chaqaloq tug'ildi — sochi qop-qora,  
Ko'zini ochmasdan jilmaydi, qara.  
Shunday kunda agar kuylaging kelsa,  
Sen odam ekansan, odam ekansan,

Men taskin izladim kuygan jonimga,  
Suydim, balolarga qoldim, yonimga  
Kelib sekin holim so'raging kelsa,  
Sen odam ekansan, odam ekansan.

Tanho bilmasa ham, bilsa ham Vatan,  
Yig'lasa ham Vatan, kulsa ham Vatan,  
Unga jonni tikmoq tilaging bo'lsa,  
Sen odam ekansan, odam ekansan.

Qahr bu — adovat, araz o'tkinchi,  
Quyosh ko'tarilib, quyosh botguncha,  
Kerakmaslarga ham keraging bo'lsa,  
Sen odam ekansan, odam ekansan.

\* \* \*

Ko'ngil shodligiga yo'qdir nihoya,  
Jonimni allalar tug'ilgan yerim.  
Salom, ota makon va bedapoya —  
Olifta qizlarga yoqmagan she'rim!..

Sen o'sha — o'shasan, dilkashu mo'min  
Dunyoni o'ylaysan shudgorni kecha.  
Yuzingdan suv oqib tinmaydi bir kun,  
Ko'zingdan arimas tashvish bir kecha.

Men esa yashadim olisda bebosh,  
Tilla sirg'alarning jarangi aro.  
O'sdi, o'saverdi yurak — xarsangtosh,  
Bolangga o'xshamay turibman, qara.

Kelaman bittalab terib loy yo'ldan  
Oltin yoshligimning suratlarini...

O‘rdaklar uchadi og‘rinib ko‘ldan,  
Oftobga tutgali ho‘l patlarini.

Ko‘ngil shodligiga yo‘qdir nihoya,  
Endi qadring bildim tug‘ilgan yerim,  
Salom, yaydoq dala va g‘o‘zapoya —  
Olifta qizlarga yoqmagan she‘rim!..

## **O‘ZBEKNING AYOLLARI**

Uxlamaydi tunlari,  
Oy nurlari taralgan.  
O‘zbekning xotinlari  
Farzand uchun yaralgan.

Yildan uzun kunlari,  
Kim ko‘nglini so‘rolgan.  
O‘zbekning xotinlari  
Mehnat uchun yaralgan.

Qirq, yil qirgin bo‘lsa ham  
O‘z ahdida turolgan.  
O‘zbekning xotinlari  
Toqat uchun yaralgan.

Yot oldidan sal nari  
Qachon kokil o‘rolgan.  
O‘zbekning xotinlari,  
Iffat uchun yaralgan...

O‘zbekning ayollari,  
O‘zbekning xotinlari,  
Suvdan halol,  
Guldan pok,  
Qo‘llari oltinlari,  
Qay tomonga bursa yuz,  
Yo‘llari oltinlari —  
Izzat uchun yaralgan!

## **NIDO**

*...Shu choqdagi yuragimki tinglangiz, hoy hu...  
Usmon Nosir*

Tong tortig‘i sahifa va sahifa nomlar,  
Bir kungina qo‘shik tug‘may botmaydi shomlar,



Haq deganning yo'llariga sochay ilhomlar,  
Shu choqdagi yuragimni tinglangiz, hoy hu...

Kim qiz suyib qon yig'lasa adosi o'zim,  
Kim yurt suyib ulug'lasa fidosi o'zim,  
Toshga tegib qaytib borgan sadosi o'zim,  
Shu chokdagi yuragimni tinglangiz, hoy hu.

Jigarlarim, yo'lingizga gullar to'shay man,  
Cho'g'dek yonib, botmay turgan kunga o'xshayman,  
Xayolingiz ufqida men shunday yashayman,  
Shu choqdagi yuragimni tinglangiz, hoy hu.

Ammo ayting anovlarga, jonga tegmasin,  
She'r yozdim, deb ming yillik dostonga tegmasin  
Usmon tutga ilib ketgan nonga tegmasin...  
Shu choqdagi yuragimni tinglangiz, hoy hu.

Dilda bayram, oldindadir kunlar gavhari,  
O'zbek yurtda tug'ilajak bir so'z sarvari,  
Toshkentdan to Londongacha, Londondan nari  
Shu choqdagi yuragimni tinglangiz, hoy hu.

«Shu chokdagi yuragimni tinglangiz, hoy hu...  
Aks-sadosi gumburlaydi go'yo zambarak.  
Sezgilarning bebozori menimcha — tuygu,  
Menga shodlik va gullarning lablari kerak!»

\* \* \*

Qadim O'zbekmomo kuyi yodimda,  
Yodimda chechaklar kulgan Chambili.  
Har gal kontsertiga kirgan chog'imda,  
Yaltiroq choponli «Yalla» ansamblin,  
Botir Zokirovni o'ylayveraman.

Qizlar karsak chalar — ta'sir shunaqa,  
Qizlar hushtak chalar — asr shunaqa.  
"Yalla" zalga sochib sumalak isin  
Kuylar «boychechagim — boylandi»sini,  
Botir Zokirovni o'ylayveraman.

Goh chikib ketaman, sezmaydi birov,  
Bu joylarda meni kim ham taniydi.  
Ogaynilar, men ham dunyoda bir kun  
Bitta qo'shiq aytib o'lsam mayliydi...  
Botir Zokirovni o'ylayveraman.

Ziyrak qorovul chol to'sar yo'limni,  
Xo'rsinar. Jim sikib qo'yar ko'limni.  
Hech qanday ansambl ovuta olmas,  
Bu kun rayhon hidli ma'yus ko'nghimni,  
Botir Zokirovni o'ylayveraman...

Ketaman. Kelaman uni so'roklab  
Qo'limda dehqon yurtning jambili, men.  
U endi kuylamas bag'rimni dog'lab,  
Sen kuylayver «Yalla» ansambli, men —  
Botir Zokirovni o'ylayveraman!

### **ADABIYOT MUZEYIDA**

Qodiriyning shaxsiy buyumlari ichra  
Bir qamchi bor ekan uchi tugilgan.  
Darrov – tushuntirish qildi bir misra  
Ekskursovodning ham bilgani-bilgan.

Dedi: bu qamchining sopi do'lonadan,  
Uzi asl qayish, toshdan ham qattiq.  
U Kumushbibining Marg'ilonidan,  
Falon yil adibga etilgan tortiq...

Ta'rif davomini eshitmay qoldim,  
Eshitgan bo'lsam ham tushunmadim yo.  
Qamchiga termulib xayolga toldim,  
Muzey bu — oynaga solingan dunyo.

O'tgan kun hikmatin qaerdan bilsin,  
Ekskursovodlarning bari aldamchi.  
Ammo bugun menga qanday keraksan,  
Qodiriydan qolgan do'lona qamchi!..

Bu xilvatga seni kim qo'ydi tashlab?  
Sug'urib olaman hozir qafasdan.  
Savalab chiqaman bitta qo'ymasdan  
Yozuvchi zotini o'zimdand boshlab.

Va deyman: o'rtoqlar, ana endi yozing,  
Kibordan qutildi dimog'laringiz.  
Endi ko'ksingizga qaytdi hayajon,  
Endi titramaydi barmoqlaringiz.

Axir, bu qamchining sopi do'lonadan,  
O'zi asl qayish—toshdan ham qattiq.

U Jahon otinning Marg'ilonidan  
Falon yil adibga etilgan tortiq...

\* \* \*

Juda sinchkov. Juda endi nozikta'b,  
Mening besh yashar o'g'lim.  
Chumchuqqa ham termuladi soatlab  
Mening besh yashar o'g'lim.

Suvni ko'rsa, tushib suzaman deydi,  
Gulni ko'rsa, qo'yvor, uzaman deydi.  
Bitta o'zim dunyo kezaman, deydi —  
Mening besh yashar o'g'lim.

Duiyo esa... dunyo kunda kulmaydi,  
Dunyo beun, dunyo parvo qilmaydi.  
Bir bola-da, der nazarga ilmaydi —  
Mening besh yashar o'g'lim.

Mening besh yashar o'g'lim.  
Yerga qarab yuragi ezilmaydi,  
Ko'kka qarab yuragi siqilmaydi,  
Raketalar nimaligin bilmaydi...  
Mening besh yashar o'g'lim.

### **KOKILINGNI KIM KESDI**

Enam o'rib o'pgan soch,  
O'sib tovon o'pgan soch.  
O'sib tovon o'pganda,  
yig'lab-yig'lab ketgan soch —  
Kokiling kim kesdi, yor?..

Ona urfdan kim tonar,  
Bag'ri-dilim o'rtanar.  
Toshga aytsam to'lganar,  
Suvga aytsam suv yonar,  
Kokiling kim kesdi, yor?..

Kokiling uzun edi,  
Senga ne husn edi,  
Turmasmidi sollannb,  
Yelkangda turnaqator,  
Kokiling kim kesdi, yor?

Seni qanday sevardim,  
Seni jonday sevardim,  
Sochingga bergan ozor,  
Ko‘llaringda qasdim bor,  
Kokiling kim kesdi, yor?..

Kokiling kim kesdi, yor,  
Sevgim yo‘lin to‘sdi yor,  
Mening ko‘nglim cho‘ktirib,  
Kimning ko‘ngli o‘sdi, yor?!

### **O‘ZIM YOMON...**

O‘z jonimga o‘zim yov,  
Qiynoqlarga solaman.  
Kuyinmagin, jonim-ov,  
O‘zim yomon bolaman.

Meni tashlab ketar kim,  
Jim termulib qolaman.  
Sen qarama, sevgilim,  
O‘zim yomon bolaman.

Meni bir zot tushunmas,  
Men hammani tushuna olaman.  
Hammaga qilib havas,  
O‘zim yomon bolaman.

Birov qoya, birov tog‘,  
Men bir tuproq — dalaman.  
Tunlar o‘yladim uzoq,  
O‘zim yomon bolaman...

O‘zim yomon bolaman,  
Yuragi qon bolaman.  
She‘rdan boshqani bilmas  
Muhammadjon bolaman.

\* \* \*

Men qadrdon uyimdan olis,  
Oromijon dalalardan ham,  
Xushbo‘ylari anqigan poliz,  
Birga o‘sgan bolalardan ham.

Men qadrdon uyimdan olis,

Bo'tana suv irmoqlardan ham.  
Boychechakka she'r o'qib ma'yus,  
Chillak o'ynab yurmoqlardan ham,

Men qadrdon uyimdan olis,  
Tushlarimdan norozi, bezor  
Kayinlarga yelkamni tirab,  
So'ko'natni asrayman byodor...

\* \* \*

Yelkalarda qo'ndoqlar sovuq.  
Yelkalarda tasmalar charm.  
Mashq maydoni sari borishar,  
Saf-saf bo'lib mening do'stlarim...

Gohi xayol bosar. Bosar o'y.  
Miq etmaydi birovi, jimdir.  
Olis Neva bo'ylarida kim,  
O'zbekiston kezadi kimdir.

Kovoqlarin solib, xo'rsinib,  
Kuylashadi qo'shiqlar sekin.  
Ko'ngillari buziladi goh,  
Buzilmaydi saflari lekin...

...Men sizlarni. o'ylab ko'rqaman,  
Boshlarimdan uchadi hushlar.  
Qo'ltiklashib xiyobon tomon —  
borayotgan saf-saf oqqushlar...

Yelkalarda qo'ndoqlar sovuq  
Yelkalarda charm tasmalar bu kun...  
Biz kaytguncha mashq maydonidan  
Saflaringiz buzilasmikan?..

## UNUTISH

*Shokirga*

Otam o'gitlarin unutmokdaman,  
Unutyapman sekin, o'zimni oqlab.  
Sen kimning o'g'lisan? Kimning o'g'lisan?  
Ortimda imonim yurar so'roqlab...

Men kimni aldadim. Ilk yolg'onlarim,

Soxta tabassumim kimga ataldi?  
Menga shuhrat tutgan xushomadlarim,  
Otamning qabriga tig‘day qadaldi.

Otam o‘gitlarin unutmoqdaman,  
Unutyapman ozgin yuzi, qo‘llarini.  
Ter hidi anqigan beqasam chopon,  
Ketmoni, yaktagi yamoqlarini.

Toleidan mamnun jufti halolim,  
Tilla tishlarini ko‘rsatib kular.  
Mening ko‘nglim bilan ishi yo‘q sira,  
Suratimni izlab kitob titkilar.  
Men esa otamni unutmoqdaman...

### **JANGCHI-SHOIR MAKTUBI**

Olislarda hilpiragan go‘shangami?  
Seni kimga uzatishar, ishonganim?  
Yor-yor aytar qizlarmi, yo shum yangami?..  
Kechir endi to‘yingga men borolmayman.

Tushlarimda esa oltin soylar bugun,  
Farg‘onada qolgan so‘lim joylar bugun.  
Bilmam endi, kimlar yo‘lim poylar bugun...  
Kechir dildor, to‘yingga men borolmayman.

Yurtimni deb, yurtimdan uzoqib ketdim,  
Tohir bo‘lib daryolarda oqib ketdim.  
Bir qirg‘oqqa ko‘zim to‘ymay boqib ketdim,  
Kechir endi, to‘yingga men borolmayman.

Bunda hali o‘chim qolgan dushmanlar bor,  
Ko‘kragidan o‘q yeb munkib tushganlar bor,  
Sevaman deb sho‘r tuproqni quchganlar bor,  
Kechir dildor, to‘yingga men borolmayman...

Qiz baxtimni qaro qilgan onam dema,  
Qismatim shu ekan-da, peshonam dema,  
Kayda qoldi shoir-mahmadonam dema...  
Kechir endi to‘yingga men borolmayman.

Yurt oldida sinov-imtihonlar kechdim,  
Olov kechdim, tizza bo‘yi qonlar kechdim.  
Men seni deb olislarda jondan kechdim...  
Kechir dildor, to‘yingga men borolmayman.

## YAXSHI BOLA

*Xayrulla Sa'dievga*

Bog'chasiga kech qolmasa — yaxshi bola,  
Maktabda «ikki» olmasa — yaxshi bola,  
Institutda kursda qolmasa — yaxshi bola,  
Hech kimga gap qaytarmasa — yaxshi bola...

Bilib tursa ham bilmasa — yaxshi bola,  
Ko'rib tursa ham ko'rmasa — yaxshi bola,  
Xodimga ish buyurmasa — yaxshi bola,  
Boshliqni tanqid qilmasa — yaxshi bola.

O'z baxtini o'ylamaso — yaxshi bola,  
Qiz bor uyga bo'ylamaso — yaxshi bola.  
Kuymasa-achchig'lamasa — yaxshi bola,  
Sevganda qon yig'lamasa — yaxshi bola.

Tuhmatchiga tik boqmasa — yaxshi bola,  
Yolg'on tinglab tutaqmasa — yaxshi bola.  
Qog'ozbozga indamasa — yaxshi bola,  
Poraxo'rni kiynamasa — yaxshi bola.

Yaxshi deysiz yana qanday o'rtoklarni?  
Yaxshi deysiz — gohida siz qo'rqoqlarni!  
Men ko'ryapman maysadagi titroqlarni,  
Ular bosib kelaversa o'tloqlarni...

Yaxshi bola. Yaxshi bola. Yaxshi bola.  
Men esa bir yomon qaysar baxshi bola.  
Bundaylarni ko'rgani hech ko'zim yo'qdir,  
Bundaylarga aytadigan so'zim o'qdir.

Faqat senga bir so'zim bor dono xalqim,  
Faqat senga bir tilak ey, Ona xalqim.  
O'g'il ko'rsang u «shumbolang»dek sho'x bo'lsin,  
Ko'zlarida chaqnab turgan bir cho'g' bo'lsin!

\* \* \*

Osmon cho'kib qoldi bu oqshom,  
Yulduz bo'lib yog'ildi bir sas.  
Bir mahalla nigohni ko'rdim:  
Yashash kerak, sevish shart emas.

Sadoqatmi?  
Kimga kerak u?..  
Behudadir ko‘z yoshning seli.  
Yulduz bo‘lib yog‘ildi bir sas:  
U begona. U endi kelin...

To‘y — bu asli badjahl ota,  
Baxtli bo‘lsin qizim degani.  
Uni senga bermasman, bo‘tam,  
Tirik ekan ko‘zim degani.

Osmon cho‘kib qoldi bu oqshom.  
Qonimda bir g‘ashlik o‘rmalar.  
Men olovga otarman endi,  
Yuragimni qiyma-qiymalab...

Yoqa ushlab qolsin ko‘rganlar,  
Olovlarga otgum uni, bas.  
Yonib ketsin chirsillab qalbim,  
Sevish kerak... yashash shart emas.

## **KUMUSH**

Marg‘ilonda Kumushni ko‘rdim,  
Ko‘ziga yosh to‘lib turibdi,  
Sochlarini maydalab o‘rib,  
Otabegin izlab yuribdi.

Tongda turib qalam qoshiga  
O‘sma qo‘ygan ekan — quribdi.  
Ko‘zdan oqqan achchiq yoshiga,  
O‘smasini yuvib turibdi...

Meni bir o‘y qiynadi yomon,  
Yana yurak o‘ynadi yomon.  
Qo‘yvor zamin, qo‘yvor osmon  
Men uyimga yetaman qachon?

Uchib keldim uyimga omon,  
Beshyog‘ochda gullabdi o‘rik...  
Toshkentga qiz berma, Marg‘ilon  
Qodiriy yo‘q. Zaynablar tirik.

\* \* \*

Tomlardagi qizg‘aldoq,



Yulduzlar bodroq-bodroq,  
Qaynagan marjon buloq,  
Yashnagan yashil o'tloq,  
Bu tut,  
Bu o'rik,  
Yantoq,  
Kimlarning bolalari?..

Bu yomg'irlar, bu qorlar,  
Bu yozlar, bu bahorlar,  
Bu burgut, bu shunqorlar,  
Bu otash qasirg'alar,  
Bu to'g'riso'z turnalar,  
Kimlarning bolalari?..

Men bilmayman kim ular,  
Men bilmayman, jim ular:  
Chaqmoqning bolalari,  
Do'llarning bolalari,  
Osmonning bolalari,  
Ko'llarning bolalari...

— O'zing kimsan?  
— Shoirman.  
Ha, shoirmi, shoirlar —  
Gullarning bolalari!

## IJARADA

Xo'jayin keladi:  
— Nima yozyapsan?  
She'r...  
Kulib chiqib ketar:  
— Mayli, yozaver.

Xo'jayinning xotini kelar:  
— Nima yozyapsan?  
She'r...  
Kulib chiqib ketar:  
— Mayli, yozaver.

Xo'jayinning o'g'li keladi:  
— Qalay shoir, yozyapsanmi she'r, deydi.  
Sigaretdan ber, deydi.  
Kulib chiqib ketar.

Xo'jayinning qizi keladi,

Jim kirib, jim chiqib ketadi,  
Yuragimni siqib ketadi...

Endi cheksam sigaretamdan  
Atirgulni isi keladi.

\* \* \*

*Xolmat akaga*

Sevgim mening,  
Kechikib kelgan, sevgim,  
Mana endi bir umr o‘rtanamiz.  
Sahargacha uxlamay o‘ylanamiz,  
Qiynalamiz...  
Men senga nima devdim?

Do‘stu g‘anim bir ermak topolmaydi,  
Bir kun bizni gapirmay yasholmaydi.  
Kechikib kelgan, sevgim,  
Men senga nima devdim,  
Olti qit‘a endi bizni poylaydi...

Sevgimsanu yoningga borolmayman, .  
Ko‘zlaringga sog‘inib qarolmayman.  
Kechikib kelgan, sevgim,  
Kechikib kelgan, sevgim,  
Hech kinga bu ko‘nglimni yorolmayman.

Seni unsiz erkalaydi nigohim,  
Soching silab charchamaydi nigohim.  
Kechikib kelgan, sevgim,  
Kechikib kelgan, sevgim,  
Bu dunyoda mening bor-yo‘q, gunohim!..

Yurak yig‘lar, aytishga iymanamiz,  
Biz endi bir umr qiynalamiz,  
Kechalari uxlamay o‘ylanamiz.  
Kechikyb kelgan, sevgim,  
Men senga nima devdim?..

### **SODDA TILAK**

Har kimning ham sochlariga oq tushsin,  
Ajin tushsin yuzlariga, dog‘ tushsin.  
Har kimning ham quvvat ketib belidan,

Qo‘llariga aso — bir tayoq tushsin.

Imoni sof yuzga kirib yorug‘ yuz,  
To‘ylar ko‘rib yelkasidan tog‘ tushsin.  
Va jismiga so‘nggi safar paytida  
O‘z bolasin qo‘lidan tuproq tushsin...

## UCHRASHUV

Ana sevgim,  
Ko‘rib turib qaragim yo‘q.  
Uning menga,  
Mening unga keragim yo‘q...  
Bir yilda bir ko‘rishamiz,  
U gapirmas.  
Menda ham yo‘q zaboi,  
Bir so‘z so‘ragim yo‘q.  
Baxtliman deb  
U ham, mag‘rur,  
O‘tib ketar,  
Men ham xursand,  
Shodman — boshqa tilagim yo‘q.  
Bu yo‘l boshi paymon edi,  
Hijron endi.  
Armon endi,  
Armonga mo‘ltiragim yo‘q...  
Ketaversin,  
Bu dunyoda bir qizni deb,  
Har kuni bir  
Yig‘laydigan yuragim yo‘q.

## TUG‘ILGAN KUNDA

Jilmayar kimningdir do‘rdoq lablari,  
Zada ko‘ngil o‘zi uqib oladi:  
Sening ko‘ylagingning yengi ko‘p uzun,  
Mening esa tilim uzun, g‘alati.

Qandilga termulib mastona nigoh,  
Zimdan biz tomonga razm soladi:  
Sening qo‘lingda hech turmaydi pichoq,  
Takallufni bilmas men ham, g‘alati.

Boqadi toziday goh qulog‘i ding,  
Ko‘ziga ishonmay qotib qoladi:  
Sen qanday o‘qchimay mayni ho‘plading,

Tutilmay she'r aytdim men ham, g'alati

Imlaysan — ketaylik. U yana sergak.  
Stolga engashib gulni hidlaydi.  
Barini bilar u dunyoda, faqat  
Onasi tug'ilgan kunni bilmaydi.

### **KO'NGIL YIG'ISI**

Ba'zan ko'ngling to'lib yig'layveradi,  
Xafa bo'lib ketasan o'z ko'nglingdan.  
Yig'lar xuddi injiq chaqaloq misol,  
Yupatay deysanu kelmas qo'lingdan.

Istaysanmi-yo'qmi shunda daf'atan  
Qilgan xatolaring yodingga tushar.  
Hasrat yomg'irlari oqar ko'zingdan  
Yo'rgaktalab yurak uvushar...

Men qanday unutay xatolarimni?  
Kuli tutayverar cho'qqa ming suv sep.  
Ular askarlardek turishar qator,  
Meni taniysanmi, taniysanmi deb.

Yodimga tushadi shahar, she'rlarim,  
Orzu va tutundan dimiqqan xonam.  
Sira qaytmas bo'lib ketmoqda ana  
Begona yelkada chayqalib onam...

Qari muallimni eslayman, kelar  
Izlab-izlab topib, eshigim qoqib.  
Xotinim yo'q deydi. O'rgatgan o'zim,  
O'zim ma'qullayman yolg'onim yoqib.

Vokzalda javdirab turibdi do'stim,  
O'n yil birga o'sdim, yuz yil birga o'sdim.  
Jo'nab qolmoq kerak (unga yotoq kerak...)  
Tanib qolmasin deb yuzimni to'sdim.

Meni besh yil kutdi bir bokira qiz,  
Balki qadrin bilgan bo'lardingiz siz.  
Men esa o'ylandim, o'ylanaverdim.  
Rostdan sevarmikin... chaynalaverdim.

Ba'zan ko'nglim to'lib yiglayveradi,  
Xafa bo'lib ketaman o'z ko'nglimdan.  
Yig'lar xuddi injiq chaqaloq misol,

Yupatay deymanu kelmas qo'limdan...

### **NILUFAR**

Oftob ufqqa ravona bo'lgan,  
Osmon bo'shab qolgan supaday.  
Bir gulni deb zardobga to'lgan  
Jonim, seni qanday yupatay?..

Kulib turar bu yorug' dunyo  
Ikki beti qizil olmaday.  
Baland dorga osildikmi yo,  
Jonim, seni qanday yupatay.

Qo'li yetmas bu gulga manim,  
Qo'lim yetmas, nimasin aytay.  
Bir gapim bor bulbulga manim,  
Uni yig'lab-yig'lab uyg'otay.

Izlamasin behuda, uning  
O'xshashi yo'k, hech bir chamanda.  
Na tongda, na shomdagi shudring  
Va na Bog'i Eram tomonda...

Ko'nglimni shu jonon gul isi  
Kelib turgan ko'llarga otay.  
O'lsam meni suvga ko'minglar,  
Nilufarning poyida yotay.

### **ZEBIXON**

Zebixonning sochlari  
Tovoniga tushadi.  
Sochlariga termulsam,  
Yuragim uvushadi....

Zebixonning qoshlari  
Qaldirg'ochdan qoradir.  
Qoshlariga termulsam,  
Yuragim ming poradir...

Zebixonning yuzlari  
Qizg'aldoqqa o'xshaydi.  
Kulib turgan ko'zlari  
Yuragimda yashaydi...

Zebixonning o‘zlari  
Bizni ko‘rmay o‘tadi.  
Ko‘rmagandek ko‘rsa ham,  
Salom bermay ketadi...

Bizga qolganda shafqat  
Qilmading-a, muhabbat.  
Zebixonning qadrini  
Bilmading-a, Muhammad!

\* \* \*

Xo‘rsinasan bildirmay,  
O‘kinasan, yig‘laysan.  
Yulduz to‘la bu oqshom,  
Sen so‘rida uxlaysan.

Yulduz to‘la bu oqshom,  
Onang xursand o‘ylaydi,  
Qaysar qizim, endi chin  
Ko‘nikkanga o‘xshaydi...

Shovullamang, bog‘lar, hey,  
Bunda bir qiz uxlaydi,  
Uxlaydiyu o‘zi jim,  
Ko‘ngliga qil sig‘maydi.

Shox silkinar ko‘ksiga  
Yaproq to‘kar, bilmaydi.  
Bir g‘am o‘rtar bag‘rini,  
Yig‘lamaydi, kulmaydi.

Bu og‘riq na do‘stlik, na  
Muhabbatga o‘xshaydi...  
Qiz qo‘ynida bir surat —  
Muhammadga o‘xshaydi.

## **BOBUR**

Toqatim toldi oqibat,  
Taxtni yov oldi oqibat,  
O‘z yurtim qoldi oqibat  
Afg‘on ketdim daryo kechib.

Omad kelar-ketar ekan,  
Jon do‘sting ham sotar ekan,

Ortingdan tosh otar ekan,  
Hayron ketdim daryo kechib.

Ikki ko‘zim elimdadur,  
Cho‘g‘dek so‘zim tilimdadur,  
Dilim yonib, dilimda bir  
Armon, ketdim daryo kechib.

Yurtdan ayro adog‘ ko‘nglim,  
G‘uboriga mushtoq ko‘nglim,  
Yig‘lab bu kun bu shoh ko‘nglim  
Vayron, ketdim daryo kechib...

Bog‘ishamol sayr endi —  
Qilg‘ay chiqib g‘ayir endi.  
Boburing yo‘q, xayr endi,  
Anjon, ketdim daryo kechib!

## **ALDOV**

Do‘stim meni aldadi,  
Dardim ichimda qoldi.  
Endi tinchim yo‘qoldi —  
Do‘stim meni aldadi.

Dardim ichimda qoldi.  
Tog‘ yiqildi ko‘ksimga.  
Dog‘ yig‘ildi ko‘ksimga,  
Do‘stim meni aldadi.

Do‘stim meni aldadi.  
Bolalikdan u bilan,  
Bir dunyo orzu bilan  
O‘sdim, meni aldadi.

Endi tinchim yo‘qoldi,  
Yorug‘ dunyoni huvillab,  
Yonaverdi gurillab,

Ko‘ksim, meni aldadi...  
Onam tushunmas, deydi:  
Qo‘zim, senga ko‘z tegdi.  
Mening esa bag‘rimga  
O‘qdek zil bir so‘z tegdi  
Do‘stim meni aldadi!

## **KINOGA KIRMAYMAN**

Bilet topilmaydi «O'tgan kunlar»ga,  
Qizlar qaytib kelar ko'zyosh qilishib.  
Xayr uyqu deyman, menda yo'q orom,  
Muqovasiz kitobimga muk tushib.

Nogoh muzikalar tingan yotoqda  
Kitobim kirmagan xona qolmagan.  
Hech kim uni mendek o'qimagan lekin  
Hech kim uni mendek o'qiy olmagan.

Ko'zimni yumaman kulgichlari yayrab,  
Kumush bolasiga ro'molcha to'qir.  
Keyin ichkaridan—ming yil naridan  
Zaynabning nigohi jonimni cho'qir.

Shunday oqshom botar, shunday tong otar,  
Kitobim o'qiyman satri muqaddas.  
Menga yoqmas ekrandagi Otabek,  
U boshqa. U boshqa men bilgan emas!..

Bilet topilmaydi «O'tgan kunlar»ga,  
Men esa kirmayman bekorga ham hatto.  
Mayli, qarsak chalay iste'dod uchun  
Lekin san'at — san'at, hayot — hayot-da.

Ko'zimni yumaman, kulgichlari yayrab,  
Kumush bolasiga ro'molcha to'qir.  
Keyin ichkaridan — ming yil naridan  
Zaynabning nigohi jonimni cho'qir.

Sarg'aygan sahifaga qo'yib boshini  
Kumush kulib yotar tirikdek xuddi.  
Tur endi opajon, tur endi opa  
Otabeging seni unutdi?..

Bilet topilmaydi «O'tgan kunlar»ga,  
Men kirmayman. Kirsam ko'nglim to'lmaydi  
Kitobim o'qiyman,  
O'zim to'qiyman,  
Kinoga hech narsa qo'shib bo'lmaydi.

## **TOSHKENT**

Oftob tug'iladi sening qarog'ingda  
Toshkeng, oqshoming-da fusunkor.



Har bir ko'chang,  
Har bir yaprog'ingda  
Qodiriyning o'ychan ruhi bor.  
Mehmondo'st deb kimlar ta'rif qilmagan,  
Hamma maqtovlarning o'zing adog'isan.  
Toshkent, sen minnatni bilmagan ustoz,  
Oybek nigohisan,  
Oybek quchog'isan.  
Anhor bo'ylarida qumrilar o'ynar,  
Shoir G'afur G'ulom bilgan qumrilar.  
Ikki ming yil avval Sag'bonni izlab,  
Hindistonni tashlab kelgan qumrilar...  
Toshkent,  
Ona shahar,  
Behad, bepoyon —  
O'zbekistondagi eng baland terak.  
Aniq, ta'rifingni qilmoqqa bayon  
Ulkan yurak kerak,  
Ulka-an yurak kerak!  
Sening ko'zlaringga termulib yurib  
Qo'shiqlar so'rayman—men ham bir o'g'ling.  
Toshkent,  
Ey, minnatni bilmagan ustoz,  
Bir umr tushmasin yelkamdan qo'ling...

## MEVALI DARAXTLAR

Qaydagi mevali daraxtni ko'rsam,  
Xoh nihol bo'lsin, xoh qaddi dol bo'lsin,  
Usmon ota, sizni eslayman men ham:  
Qabringiz olmaning hidiga to'lsin...

Bolari misoli shotutny so'rsam,  
Jiydani cho'qisam chumchuqday qay kun,  
Usmon ota, sizni eslayman men ham:  
Qabringiz behining hidiga to'lsin...

Toshkentdek shaharda hatto, agarda,  
Omon qolgan bo'lsa bir tup oqo'rik,  
Men sizni eslayman, shomu saharda  
Oftobga intilgan shoxlarin ko'rib.

O'choqlar chinqirar ko'kda parrakli,  
Parovozlar yelar yerda serzarda.  
Men sizni eslayman, temir yo'l tufayli  
Kesilib ketmagan olchazorlarda.

Mevali daraxtlar... dov og‘alarimiz,  
Bahodir va naynov og‘alarimiz,  
Beozor, beqarov ogalarimiz,  
Bizning tug‘ma soqov, ogalarimiz?..

Qaerga bormayin ularni ko‘rsam,  
Barglarin ko‘zimga suraman dilgir.  
Va Usmon otani eslayman men ham —  
Qabriga nashvatlarning hidi to‘lgur...

## TARAQQIYOT

Ayollar, paykaldan ko‘tarmang boshni,  
Faqat mehnat qiling, yillar kutmaydi.  
Shiyponlarda kutib kuzating quyoshni,  
Kelajak avlodlar bizni unutmaydi!..

Biz shunday butifoslar topamiz hali,  
Paxtamizni yillab tersak bitmaydi.  
Xirmonlar osmonga tegar yuksalib,  
Kelajak avlodlar bizni unutmaydi.

Erkaklar — ertaklar o‘qing, ov qiling,  
So‘qmoqlarda so‘nggi jayronlar titraydi.  
So‘nggi yo‘lbarlarning terisin shiling,  
Kelajak avlodlar bizni unutmaydi.

Og‘ular topamiz, chuvalchanglar ilib,  
Hech kim qarmoqlarda baliq tutmaydi.  
Delfinlar sohilda yotadi cho‘zilib,  
Kelajak avlodlar bizni unutmaydi...

Shoirlar dunyoga tanitib elin,  
Mukofotlar bilan bir-birin qutlaydi.  
Navoiy bobosin tushunmay tilin,  
Kelajak avlodlar bizni unutmaydi!..

Buni taraqqiyot derlar. Biz o‘sdik,  
O‘saverdik, hech kim inkor etmaydi.  
Tog‘larni qo‘porib, daryolarni to‘sdik,  
Kelajak avlodlar bizni unutmaydi.

She‘rim — qarog‘imdan oqqan yoshlarim,  
Anglarmisiz uni, hech ko‘zim yetmaydi...  
Barakalla sizga, zamondoshlarim,  
Kelajak avlodlar bizni unutmaydi!

## LO‘TTIVOZLAR

Keldim. Ko‘rdim. Esnab, yoshligin eslab,  
Sotuvchi qiz o‘zin oynaga toblar.  
Do‘konni to‘ldirib chang bosib yotar,  
Sarg‘aygan yuzin bir ko‘rmay oftoblar —  
Lo‘ttivozlar yozgan kitoblar...

Kitoblarki, bo‘yi bo‘yim bilan teng,  
Muqovalar guldanmi yo zardan deng.  
O‘qilmasdan qaqshab yotgan har boblar,  
Uvol ketgan qog‘oz, uvol hisoblar —  
Lo‘ttivozlar yozgan kitoblar...

Bu xarjlarni kimning mehnati qoplar?  
Hammamiz jim. Jim tortamiz azoblar.  
Chunki avtorlarning bari arboblari,  
Lo‘ttivozlar yozgan kitoblar...

Yoshlar qayda dersiz, olov-o‘t yoshlar?  
Chaqchayadi ko‘zlar, uyular qoshlar:  
Qoching beodoblar, ha beodoblar,  
Ko‘rmayapsizmi axir, bular bari —  
Lo‘ttivozlar yozgan kitoblar...

Ayting, qo‘ysin ular minbarlardagi  
Vijdon haqidagi xitoblarini.  
Borib sotib olsin do‘konlardagi  
Mag‘or bosib ketgan kitoblarini!

## MUTTAHAM

Ajoyib yoz kunlarining birida,  
Bir uvishdi, bir uvishdi yuragim.  
Qarasam bir taniqli muttahaarning  
Kuragiga tegib turar kuragim.

Voy kuragim, dehqon otamdan meros,  
Voy kuragim, tilsizgina qaqshaydi.  
Senga tegingandan ko‘ra bu maxluq,  
Biror daydi o‘q tekkani yaxshiydi...

Shahar bayram qilar edi o‘sha kun,  
Lunji shishib karnay-surnayin chalib.  
Kuragimni devorlarga ishqasam,  
G‘ishtlar ko‘chib tushdi uyalib.

Yorug‘ dunyo, avra-astaring ag‘dar,  
Mening bitta dushmanim topsang agar,  
U shu — xunuk kulayotgan muttaham,  
Ko‘zlari ko‘ksimga botgan muttaham,

Qodiriyni qonqaqshatgan muttaham,  
Usmon Nosirni yig‘latgan muttaham,  
Cho‘lpondek zotlarni sotgan muttaham,  
Bobur qabriga tosh otgan muttaham!..

Do‘stlar, menga temir supurgi bering,  
Farrosh bo‘lib supurib chiqay izin,  
Ey-y, yashasin mamlakatda bitta ham  
Muttaham qolmagan kun — kommunizm!

## MADINA

Madina, Madina, nega yig‘laysan,  
Mening asal qizim, qachon uxlaysan?  
Isitmang tushmadi, topolmadim dori,  
Tinmadi chaqaloq jonngning zori,  
Yarashmas yashamoq nokasga yolvorib,

Chida, yorug‘ tongni kutamiz, qizim,  
Biz hali hammadan o‘tamiz, qizim...  
Sen yig‘loq tug‘ilding, men yozolmadim,  
Yozgan she‘rimni ham o‘tkazolmadim.

Ammo, ishon axir, bulbul yuragim,  
Men uni bekorga o‘tga solmadim,  
Bu yorug‘ dunyoda mening qolar izim,  
Biz hali hammadan o‘tamiz, qizim...

Ikkala qo‘limda. sening beshiging,  
Ko‘nglimda ko‘zingdek shaffof qo‘shig‘ing.  
Tunlarimga navo qaytar kunim bor,  
Senga ardoq so‘zim aytar kunim bor,

Qalbimni shudgordek haydar kunim bor.  
Yig‘lab yozdirmasang aylanay o‘zim,  
Biz hali hammadan o‘tamiz, qizim.  
Shoir shunday ko‘pki, ularga yer tor,

Hammasi mashhur va hammasi nomdor,  
Ulug‘vor, ularga yetmoq ko‘p dushvor.  
Ammo ular oyga bosib yuzini

Turganda osmonin bag‘riga ilk bor

Biz olib borgaymiz tuproq isini,  
Gulday dimog‘iga tutamiz, qizim,  
Biz hali hammadaga o‘tamiz, qizim!..  
Biz hali hammadan o‘tamiz, qizim,  
Yig‘lab yozdirmasang, aylanay o‘zim.

## TEMIRLAR NIDOSI

Osmonni titratib samolyot uchsa, men yig‘i ovozi  
eshitaman. Samolyot uchyapti-yu, ho‘ngrab yig‘lab  
ketyapti.

Uchib ketayotgan snaryad ham g‘ingshib yig‘layotgandek.  
Yer ostida, suv ostida, o‘rmonlar ostida qanotli  
va qanotsiz raketalar yum-yum yig‘layotgandek.  
Samolyot — men chalg‘i bo‘lmoqchi edim, deb  
zorlanayotgandek.

Tanklar — kombayn, to‘plar — temir ko‘prik  
bo‘lmoqchydik, deb zorlanayotgandek...

Temir ham gapiradimi deguvchilarga esa ushbu dostonim  
hadya.

Ha, temir ham, ko‘mir ham gapiradi.

Faqat biz odamlar buni zshitmaganga olamiz.

Odamlar, mening olgi oylik qizcham beshikda uxlayapti. U  
raketalar, atomlar, neytronlar nimaligini bilmaydi. Shuning  
uchun ham pishillab uxlayapti.

Temirlar esa yig‘layapti...

Zabonim yo‘q,  
Tilim yo‘q,  
Dardim kimga ayturman.  
Menga tegma  
Ey, odam  
Senga tegmay yoturman.  
O‘z holimga qo‘ymasang,  
Cho‘qqa toblab to‘ymasang,  
Temir jismim qo‘lingga  
Qilich bo‘lib qayturman...

Qora quzg‘un,  
Qush bo‘lib,  
Dengizlarda suzarman.  
Po‘lat bo‘lib,  
Zirh bo‘lib,  
Osmonlarda kezarman.  
O‘zing topgan baloga,

Qayga bording davoga,  
Qiyin bo'lsa o'zingga,  
Men nima yutqazarman.

Keng dunyoda yayramay,  
Bolang yig'lar chirqirab.  
Nishon poylab yotibman,  
Temir jonim zirqirab.  
Men ajalman,  
Qironman,  
Atomman,  
Neytronman,  
Zaminni suv bosmasin,  
Ko'zingdan yosh tirqirab...  
Men ham yorug' olamni  
Xandon ko'rgim keladi,  
Dehqon bilan qirlarda  
Bug'doy o'rgim keladi.  
O'zing meni o'q qilding,  
Orzularim yo'q qilding,  
Endi nima bo'ladi,  
Endi nima bo'ladi?

Yer aylanar ko'ksiga  
Sig'may jarohatlari.  
Ayting, menda nima ayb,  
Dunyo qoraxatlari?..  
Ey, Maskov soldatlari,  
Ey, Brest soldatlari,  
Temirni ham yig'latgan  
Insonlarning mardlari!

Haqsizlik o'tgan joyda  
Toshlardan ham sado bor,  
Dunyoda jismlarga  
Nom qo'yishda xato bor.  
Asli temir biz emas,  
Na po'lat,  
Na mis emas,  
Temirdil odamlardan  
Dahshat qanday vabo bor?..

Temir bo'lsam, dilimni  
O'rtarmidi savollar,  
Xirmon to'la bolalar,  
Paykal to'la ayollar.  
Mashriqda tank men edim,  
Mag'ribdagi ketmon ham,

O'rmondagi to'plar ham,  
O'qqondagi minalar,

«Katyusha»ni opichlab,  
Zir yelgan mashinalar,  
Dzotlar ham,  
Dotlar ham,  
Kema,  
Samolyotlar ham,  
Besh kolxozning  
Yolg'izi —  
Traktor ham men edim,  
Temiroyoq,  
Invalid  
Brigadir ham men edim!..

Ufqlarga tutashgan  
Dalalardan aytaymi,  
Omochda ot niqtashgan  
Bolalardan aytaymi,  
Tikka turib uxlashgan  
Momolardan aytaymi?..  
Kim ishonmas  
Temirlar  
Yig'lamas, deb — yig'laydi.  
Suvga ham botilasan,  
Loyga ham botilasan,  
Bir tup g'o'za bilmasdan  
Chopilsa — otilasan,  
Uyingdan bitta ko'sak  
Topilsa — otilasan,  
Kim aytadi temirlar  
Yig'lamas, deb — yig'laydi.

Temirlar yig'laganda  
Toshlar erib tinglaydi.  
Men yig'ladim,  
Chollar ham  
Front kezib yurganda,  
Qizlar kesib kokilin  
Miltiq ushlab turganda,  
Farhod GESni qurganda,  
Farhod GESni qurganda...  
Men yig'ladim,  
Lovillab  
Yonib turgan qo'ynimdan  
O'n besh tilda  
Bir nido

Yangragan kunda — Vatan!  
O‘qqa uchib o‘lmagan,  
Dor tagida kuylagan,  
Bepoyon mamlakatning  
Mardlariga berib tan.  
Men yig‘ladim,  
Fashistlar  
Go‘dakni ham otganda,  
Goh odam deb yurganim  
O‘z yurtini sotganda,  
Tili boshqa bolam, deb,  
Yurakdagi nolam, deb  
Tunlari uxlatganda,  
Saharlar uyg‘otganda,  
O‘n oltita bolasin  
Bir temirchi Toshkanda!..

Urush,  
Ey, odamfurush,  
Senga go‘dak nimadur?  
Zamin uzra  
Chaqaloq  
Yayrab ko‘krak emadur.  
Sen uni ko‘rolmaysan,  
Qon ichmay turolmaysan,  
Gitlermisan,  
Napoleon,  
Shohmisan,  
Qirolmisan,  
Eng vahshat qurolmisan,  
Eng dahshat qurolmisan,  
Hammani qirolmaysan,  
Hammani qirolmaysan!..

Ammo  
Temir yuragim,  
Qon yig‘lagan dala bor,  
Xatinda bir qo‘rg‘on bor,  
Volgada bir qal‘a bor —  
Bo‘ydor jangchi,  
Qo‘lida  
Mittigina bola bor,  
Bolalarni qiynashga  
Fashistda hafsala bor...

O‘z uyida  
Ulg‘aygan,



Yigit bo‘lib yetilgan,  
Qo‘ndoq yorib qovog‘in  
Haydabgina ketilgan,  
Qul misoli sotilgan,  
Fil misoli otilgan  
Bolajonlar, aylanay,  
Urush,  
Men nima qilay?

Minaga uchib o‘lgan,  
Ochlikdan shishib o‘lgan,  
Goho qor kechib o‘lgan,  
Goho qurt ichib o‘lgan,  
Yo‘lga ko‘z tikib o‘lgan,  
Kutib,  
Ichikib o‘lgan —  
Bolajonlar,  
Aylanay,  
Urush,  
Men nima qilay?

Omoch edim,  
Eridim,  
Miltiq bo‘lib kerildim.  
Quzg‘un bo‘lib,  
O‘q bo‘lib,  
Osmonlardan yog‘ildim.  
Men ham yerni sog‘indim,  
Men ham yerni sog‘indim  
Bolajonlar, aylanay,  
Urush-da, nima qilay?!

Temir bo‘lsam,  
Siz uchun  
Temir bo‘ldim, qo‘rqmadim  
O‘tga kirsam  
Yonmadim,  
Suvga tushsam,  
Cho‘kmadim.  
Qonizni men to‘kmadim,  
Qonizni men to‘kmadim  
Bolajonlar, aylanay,  
Urush,  
Men nima qilay?

Zabonim yo‘q,  
Tilim yo‘q,  
Dardim kinga ayturman.

Teginmasin odamzod,  
Unga tegmay yoturman.  
O'z holimga qo'y masa,  
O'tga toblab to'y masa,  
Temir jonim qo'liga  
Qilich bo'lib qayturman...

Quzg'un bo'lib,  
Qush bo'lib,  
Osmonlarda kezarman.  
Po'lat bo'lib,  
Zirh bo'lib,  
Ummonlarda suzarman,  
U mening tinchim buzsa,  
Men dunyoni buzarmen!

Sharqu G'arbga barobar  
Oftob chiqar yarqirab...  
Nishon poylab yotibman,  
Yuraklarim zirqirab,  
Ikki ko'zi mendadir  
Yer aylanar chirqirab,  
Men ajalman,  
Qironman,  
Atomman,  
Neytronman,  
Olamni suv bosmasin,  
Ko'zimdan yosh tirqirab...

Homilador xotini tong-saharda turib inqillab  
yurib yopib bergan nonni belbog'iga tugib dehqon  
dalasiga jo' naydi. Uning ezgu maqsadi yagona —  
urug' sochib, don yig'ib olish, paxta ekib, dunyoni oqqa  
belash.

Qari muallim bolalarga she'r o'qib beryapti.  
Insoniy tuyg'ular haqida she'r. Uning maqsadi ham  
yaxshilik urug'ini sepish.

Dengizlar ortidagi afsonaviy bir diyori odamlari muxbir  
bilan jilmayib gaplashmoqda. Ularning ham tilagi yagona  
— tinch-totuv yashash.

\* \* \*

Qo'lim tegmay to'kildi gulim,  
Suvga tushdi, oqdiyu ketdi.  
Omadim yo'q ekan sevgilim,

Bo‘lsa ham bir boqdiyu ketdi,

Ayting-ayting, ko‘nglimni so‘rab  
Lazzatlanmoq istar endi kim?..  
Men sevgimni gulbargga o‘rab,  
Kuyib ketgan jonimga ko‘mdim.

Muhabbatim — mening shoh baytim,  
Oqu qarosi sen ko‘zimning.  
Men dardimni osmonga aytdim,  
Yulduzlarga bosib yuzimni.

Nechun endi g‘amgin nigohim,  
Ayting, bilmoq istagan kimdir?  
Oftob mening bir chekkan ohim,  
Oq yomg‘irlar ko‘zyoshlarimdir...

Qo‘lim tegmay to‘kildi gulim,  
Suvga tushdi, oqdiyu ketdi.  
Omadim yo‘q ekan, sevgilim,  
Bo‘lsa ham bir boqdiyu ketdi.

## **QARI QIZ**

Tongda hushiga kelar,  
Kunduz — uning ertagi.  
Tunda tushiga kirar,  
G‘iybatning kekirtagi.  
Uyg‘onar qo‘llari musht  
Qari qiz — go‘zal xomush,..

## **YUVOSH O‘G‘IL**

Oxir borar joyim shu qora tuproq,  
Yotarman maysalar yopinib bir kun.  
Men seni o‘ylarman o‘zimdan ko‘proq,  
Mening yuvosh o‘g‘lim, salomat yurgin...

Dunyo dun nayranglarga to‘ladir,  
Tili boldan shirin do‘stlar bo‘ladir,  
Yurakdan chiqmagan so‘zlar bo‘ladir,  
Mening yuvosh o‘g‘lim salomat yurgin.

Falakning qo‘ynida muzlari bordir,  
Uchqur yigitlari, qizlari bordir.  
Kaftingda ketmonning izlari bordir,

Mening yuvosh o'g'lim, salomat yurgin.

Tepangda charx urib qilib parvoz men,  
Bo'lolmasman qalqon bahoru yoz men,  
Boshing toshdan bo'lsin, deyman xolos men,  
Mening yuvosh o'g'lim, salomat yurgin.

Suvlarning yuzida suzadi xaslar,  
Odamzod kimlarga qilmas havaslar...  
Og'ir kunda yurtin sendaylar asrar —  
Mening yuvosh o'g'lim, salomat yurgin.

\* \* \*

Oy yuzidan nur yog'di sim-sim,  
Yur Muhammad, ketdik bu yerdan.  
Shirin tushlar ko'rsin sevgilim,  
Yur Muhammad, ketdik bu yerdan.

Biz ketsak yer kengayib qolar,  
Osmon ham sal enkayib qolar.  
Bir qora ko'z jilmayib qolar...  
Yur Muhammad, ketdik bu yerdan.

Na qildim ey, yuzlari zebo,  
Aybim ne, deb so'rama aslo.  
Bu dunyo shundayin bevafo,  
Yur Muhammad, ketdik bu yerdan.

Sevgi dilda yashnagan chechak,  
U biz bilan qayda yashasak.  
Ne qipti bir qizga yoqmasak?..  
Yur Muhammad, ketdik bu yerdan.

\* \* \*

Toshkentda sirenlar gullasa, singlim,  
Va yana qandaydir... akatsiyalar.  
Bedazornimi-ey qo'msaydi ko'nglim,  
Birovga aytishga odam uyalar.

Loy tomda yurgandek, bo'laman yugurib,  
Tushlarimga kirar chumchuq uyalar.  
Kuylayman shotutning shoxida o'tirib...  
Birovga aytishga odam uyalar.

Tramvayni ko'rsam yodimga tushar  
Kulun ergashtirib yurgan biyalar.  
Kulchasi sigirning shoxiga o'xshar...  
Birovga aytishga odam uyalar.

Sevgi dog'i aylanadi qonimda,  
Bir qiz yashar yuragimda, jonimda,  
Singlim, nega sen ham yo'qsan yonimda?  
Birovga aytishga odam uyalar.

Toshkentda sirenlar gullasa, singlim,  
Va yana qandaydir akatsiyalar.  
O'rikzornimi-ey, qo'msaydi ko'nglym,  
Senga aytishga ham odam uyalar.

### **O'G'LIMGA AYTMAGAN QO'SHIG'IM**

Sherzod o'g'lim, sher o'g'lim,  
Polvon o'g'lim.  
Seni sog'inmaganim  
Yolg'on, o'g'lim...  
Sog'inganda mo'ltirab  
yo'l qarayman.  
Mening ko'ksim bu — Dashti  
Armon o'g'lim.  
Yuragimda sog'inchu  
G'urur yashar.  
G'urursiz yashamak ko'p  
Yomon o'g'lim.  
Umr silkknib turgan  
Kilko'prikdir.  
Undan o'tmoq kimga ham  
Oson o'g'lim...  
Sherzod o'g'lim, sher o'glim,  
Polvon o'g'lim.  
Seni tashlab ketganim —  
Yolg'on, o'g'lim...

\* \* \*

Qahrim qattiq bo'ldi.  
Mehrim qattiq bo'ldi.  
Nasihatni esa olmadim.  
Harifim suyundi,  
Do'stim kuyundi...  
Men o'z bilganimdai qolmadim.

Osoyish botmadi biron-bir kunim,  
Talashib-tortishib tolmadim.  
«Og'irroq bo'l, inim.  
Siporoq bo'l, inim...»  
Men o'z bilganimdan qolmadim.

Tengimni bilmasdan bir qizni suydim,  
Suydim sira kulmay omadim.  
«Shohona, yasharmiz so'zimga kirsang...»  
Men o'z bilganimdan qolmadim.

Quvroq bo'l, deyishdi. Yolg'on ham kerak  
Jindak xushomad ham, quloq solmadim.  
Oqni oppoq ko'rdim, qorani-qora —  
Men o'z bilganimdan qolmadim...

Ko'nglim sezar endi buyog'i ayon.  
Do'stlarim, do'stlarim, baxtli bolaman!  
Yo Toshkentda eng zo'r shoir bo'laman,  
Yo qishloqqa qaytib ariq bo'yida  
Yalpizga suyanib, o'lib qolaman.